



Ijtimoiy-huquqiy, ilmiy jurnal

HUQUQ va BURCH

ISSN 2010-5436

№10/2022





Axborotni **RASMIY** va **ISHONCHLI MANBA**dan oling



Qonun hujjatlari
haqida tezkor
ma'lumot olishni
istasangiz hamda o'z
huquqlaringizni
bilib bormoqchi
bo'lsangiz



Axborot ko'pligi va xilma-xilligi
zamonida Adliya vazirligining
@huquqiyaxborot kanali **to'g'ri,**
aniq va ishonchli manbalardan
biri hisoblanadi.



Kanalda qabul qilinayotgan qonun
hujjatlari va boshqa huquqiy ma-
salalar sodda va tushunarli tarz-
da, infografika va boshqa tasvi-
riy vositalardan keng foydalan-
gan holda beriladi.

ADLIYA VAZIRLIGINING TELEGRAMDAGI KANALLARIGA ULANING:

ЎЗБ – <https://t.me/huquqiyaxborot>
УЗБ – https://t.me/huquqiyaxborot_lotin
РУС – <https://t.me/pravoinf>
ENG – <https://t.me/leginf>






LexUz –

O'zbekiston Respublikasi
Qonun hujjatlari
ma'lumotlari milliy bazasi.

Maqsadimiz aholining huquqiy madaniyati darajasini ko'tarish, yuridik va jismoniy shaxslarning qonun hujjatlaridan keng foydalanish imkoniyatini ta'minlash, jamiyatning huquqiy axborotlashtirish tizimini takomillashtirishdan iborat.



LexUz –

Internet orqali normativ-
huquqiy hujjatlarni
olish imkoniyati.

Tizimda ro'yxatdan o'tish
majburiy emas,
foydalanish
mutlaqo bepul.



www.lex.uz



t.me/lexuzofficial



t.me/LexUzTelebot



www.facebook.com/LexUzbekistan

Ishonchlilik

LexUz tizimi O'zbekiston
Respublikasi Adliya vazirligiga
tegishlidir.

Tizimga ma'lumotlar faqat
rasmiy manbalardan kiritilishi
ularning ishonchliligini
ta'minlaydi.



Mobillik

LexUz tizimidan dunyoning
istalgan joyida
foydalanish mumkin.

LexUzning mobil qurilmalar uchun
versiyasi mavjud.



www.adolatmarkazi.uz



Manzil: Toshkent shahar, Mirobod tumani,
Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.
Tel.: (998 71) 233-38-08, (998 71) 233-73-98
[http: www.lex.uz](http://www.lex.uz), e-mail: lex@adliya.uz

MUASSIS:

O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi qoshidagi
«Adolat» milliy huquqiy
axborot markazi

Tahrir kengashi:

Ruslanbek Davletov
Muzraf Ikramov
Xudoyor Meliyev
Alisher Karimov
Akbar Toshqulov

Bosh muharrir:

Asliddin Almardonov

Tahrir hay'ati:

Furqat Tojiyev
Shohidaxon Yo'ldosheva
Sherzod Rabiye
Shahnoza Soatova
Akram Xalilov
Muzaffar Mamasiddiqov
Miravzal Mirakulov

Mas'ul kotib:

Shavkat Yodgorov

Dizayner:

Azamat Jumaniyazov

Navbatchi muharrir:

Hasan Nishonov,
Furqat Alimardonov

«HUQUQ va BURCH» ijtimoiy-huquqiy, ilmiy jurnali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 8-aprelda 0081-sonli guvohnoma bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnal 2006-yil mart oyidan chiqq boshlagan. Oyda bir marta chiqadi.

Nashr indeksi: 902. Sotuvda kelishilgan narxda. Jurnal sahifalarida chop etilgan materiallardan foydalanilganda «HUQUQ va BURCH» ijtimoiy-huquqiy, ilmiy jurnalidan olindi deb ko'rsatilishi shart. Tahririyat taqdim etilgan maqolalarni taqriz qilish va qaytarish majburiyatini olmagan.

PR belgisi bilan berilgan maqolalar tijorat maqolalari hisoblanadi.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahri, Mirobod tumani,
Amir Temur shoh ko'chasi, 19-uy.


Telefonlar:

Obuna bo'limi: (71) 233-28-18,
web-site: www.huquqburch.uz;
e-mail: info@huquqburch.uz
f [facebook.com/huquqburch.uz](https://www.facebook.com/huquqburch.uz)
t https://t.me/hb_online

Jurnal 10.11.2022-yilda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Ofset usulida bosildi.
Shartli 8 b.t. Buyurtma №10. Adadi: 1560.
«Premium poligraf biznes» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 20-mavze 9-uy, 4-xonadon.

MUNDARIJA

№ 10/(2021)/2022



2

ANONIM YOZISHMALARDA

hududga aloqador til birliklarining
lingvistik tahlili

9

JINOYAT ISHLARINI KO'RISHDA

xalq maslahatchilarining ishtiroki

16

O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK SUG'URTANI

tashkil etish zaruriyati

19

XOTIN-QIZLAR

reproduktiv huquqlarining qiyosiy tahlili

24

ANGLIYA VA AMERIKA QO'SHMA**SHTATLARINING JINOYAT QONUNCHILIGI**

ularda jinoyat tarkibining subyektiv tomoni belgilari



So'nggi yillarda ayrim «tadbirkorlar» tomonidan iste'molchilar ishonchini qozongan mahsulotlarning qalbaki nusxasini ishlab chiqarish ko'paymoqda. Chunki bu ish bironing bozorini kasod qilish hisobiga oson daromad keltiradi.



56

ICHKI ISHLAR ORGANLARI
uchinchi sektorda

**CHEGARADA INTELLEKTUAL MULKNI
HUQUQIY HIMOYA QILISH:**
muammo va yechimlar

28

JINOIY UYUSHMALAR UCHUN
jinoiy javobgarlik

32

MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA
“sudning faol ishtiroki”

36

QASHQADARYOLIK ILK YURIST AYOL

40

**MAKTABGACHA TA'LIM TASH-
KILOTLARIDAGI MUAMMOLAR:**
tahlil va taklif

42

ALIMENT –
majburiyatmi yoki mas'uliyat?

48


USUL VA FURU':
qonun va ijro yoki moliya, jazo huquqi kabi
atamalarning islomdagi muqoyasasi

52



60

**HUQUQSHUNOSGA
SAVOLIM BOR...**



Anonim yozishmalarda hududga aloqador til birliklarining lingvistik tahlili

Qashqadaryolik ilk yurist ayol

Mamlakatimizda ko'plab ayollar yurist, advokat, notarius, sudya hamda prokuror lavozimlarida xizmat qilib kelmoqda. Ammo bundan yarim asrcha oldin yuristlar orasida ayollar qariyb bo'lmagan.



Qashqadaryolik jurnalist Bahodir Abdurazzoq izlanishi natijasida viloyatdagi huquqshunos ayollardan birining daragi topildi. U shunday deb yoza-di: *“Men tahririyatimiz topshirig'iga asosan viloyatimizdagi birinchi yurist ayol kim ekanini qidirib topishga harakat qildim. Bunda Muborak tuman FHDY bo'limi mudiri Robiya Xoliqova va faxriy huquqshunos, iste'fodagi adliya katta maslahatchisi Saida Ibrohimovalarning yordami beqiyos bo'ldi. Ular yordamida Qashqadaryo viloyatidan yetishib chiqqan birinchi huquqshunos ayolning daragini topdim.*

Bu inson Koson tumani Mug'jagul mahallasida 1928-yil 15-may kuni tavallud topgan Toshbibi Komilova ekan. Toshbibi opa Koson tuman Mug'jagul qishloq soveti raisi Komil Murodullayev va uy bekasi (chevar) Salomat Abdullayevalar xonadonida tug'ilgan. U juda erta, besh yoshligidan maktabga bordi. Rasman o'quvchilikka qabul qilinmagan bo'lsa-da, bolalar bilan qo'shilib maktabga borar va sinf xonasiga kirib o'ti-

rardi. 1936-yil S. M. Kirov nomidagi 1-o'rta maktabga o'qishga qabul qilindi. 1946-yil shu maktabning birinchi bitiruvchilaridan bo'ldi”.

Toshbibi opa qishloq soveti raisi xonadonida taval-lud topgani uchun ham oddiy insonlar haq-huquqini himoya qilish, muammolarini bartaraf etishda qonunlarning o'zni beqiyosligini, ularni bilish juda muhimligini yoshligidan chuqur his qilardi. Odamlar o'z haq-huquqini yaxshi bilishini, kerak bo'lsa, ularni himoya qilishni istardi. Bu istak uni huquqshunoslik sari yetakladi. U o'rta maktabni tamomlagach, Koson tuman xalq sudiga mas'ul kotib lavozimida ish boshladi. Toshbibi Komilova yoshlik chog'laridan huquqshunoslik fanini o'rganishga qiziqdi. Urushdan keyingi yillarda yoshlarni o'qishga jalb qilish, ayniqsa, xotin-qiz kadrlarni tayyorlash masalasi kun tartibiga chiqdi. Koson tumani xalq sudiga huquqshunos kadrlarni tayyorlash maqsadida davlat tomonidan yuridik yo'nalishda o'qish uchun kvotalar ajratildi. Aynan shu o'ringa yosh xotin-qizlardan Toshbibi Komilova Koson tuman xalq sudi tomonidan tavsiya etildi. Shu tariqa u 1948-yili O'rta Osiyo davlat universitetining yuristlar tayyorlaydigan fakultetiga qabul qilindi.

O'zbekistonda huquqshunoslik 1930 – 1940-yil-larga kelib rivojlana boshladi. Bu yo'nalishda iqtidorli olimlar yetishib chiqdi. Akademik Xadicha Sulaymonova, professor Otaboy Eshonov va boshqalar bunga misol. Urushdan keyingi yillarda ushbu sohada muammolar yechimi bilan shug'ullanayotgan bir guruh huquqshunoslar paydo bo'ldi. Bular qatori-da Anvar A'zamxo'jayev, Shavkat O'razayev, Ikrom Zokirov, Haydar Po'latov, Hamid Vohidov va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin. O'zbekiston qahramoni Ozod Sharafiddinov o'z maqolasida ularga

to'xtalib, bu olimlarning har biri bir dunyo edi, ularning xizmatlari evaziga 1950-yillarda davlatimizning yurisprudensiyasida katta o'zgarishlar bo'lgan deydi.

Haqiqatan ham mazkur yo'nalishda mahalliy kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berila boshlandi. Ayniqsa, davlat tomonidan xotin-qizlardan huquqshunos kadrlar tayyorlashga jiddiy ahamiyat qaratildi. Toshbibi Komilova ham yuridik institutda yuqorida nomi zikr etilgan huquqshunos olimlardan ta'lim oldi.

U 1952-yilda oliygohni imtiyozli diplom bilan tamomlagan ilk qashqadaryolik talabalardan biri bo'ldi. Shu yili Koson tuman prokuraturasi tergovchisi vazifasida ish boshlaydi. Oradan bir oz vaqt o'tib, unga tuman prokurori yordamchisi vazifasi ishonib topshirildi. O'z kasbiga sadoqat bilan ishlagani uchun xalq e'tiborini qozona olgan yosh, bilimli mutaxassis hamisha rahbarlar nazarida bo'lishi tabiiy.

1955-yilda Toshbibi Komilovani tuman rahbariyati anchagina og'ir joy bo'lgan Qoraqum xo'jaligidagi "Ishchilar ta'minoti kooperativi"ga rahbar qilib jo'natishadi. Oldin savdo sohasida ishlab ko'rmagan bo'lsa-da, yosh rahbar ishning borishida tubdan o'zgarish yasay oladi. Natijada u boshqarayotgan tashkilot nafaqat tumanda, viloyatda ham e'tiborga tushadi. Tashkilotchi rahbar Toshbibi Komilova bir necha bor tuman va viloyat kengashi deputatligiga saylanadi. Fidokorona mehnati munosib taqdirlanib, hukumat mukofotlari, medallar va faxriy yorliqlar bilan mukofotlandi.

Mutafakkirlar aytganidek, dunyoda insoniylik vazifasi, kishilarga foyda keltiradigan harakatlarni amalga oshirish mas'uliyati xudo bergan bir inoyat bo'lib, bu insoniylik yukini hamma ham ko'tara ol-

maydi. Ammo ana shu yukni ko'tara olgan va elga nafi tekkan insonni yuksak fazilatlar uchun el qadrlaydi, aziz qiladi.

Toshbibi Komilova 1960-yil Koson tumani ijtimoiy ta'minot bo'limi mudiri vazifasiga, oradan uch yil o'tib tuman fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limi mudiri vazifasiga tayinlandi. Toshbibi opa bu lavozimda 1987-yilgacha faoliyat olib bordi. Shu davr ichida qanchadan-qancha yoshlarning oila qurishiga guvoh bo'ldi, o'zining samimiy tilaklarini bildirdi. Tumanda dunyoga kelgan qanchadan-qancha go'daklarga tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalarni topshirdi.

Toshbibi opa endilikda farzandlar va nevaralar qurshovida keksalik gashtini surayapti deb o'ylaymiz. Yo'q, aziz o'quvchi. Muntazam mehnat qilishga o'rgangan qahramonimiz uyida tinch o'tira olmasdi.

Tuman ijtimoiy ta'minotida ishlayotgan shogirdlarining taklifini yerda qoldira olmay, shu tashkilot huquqshunosi vazifasida mehnat qila boshlaydi. Opaning faoliyati samarali kechadi. Ijtimoiy ta'minot bo'limi hujjat yuritish ishlarida, fuqarolarning murojaatlarini ijobiy hal qilish borasida viloyatda yetakchilar qatoridan o'rin oldi. Opa mahalla tadbirlarida ham faol ishtirok etadi. Yosh oilalarga o'zining qimmatli maslahatlarini beradi, shuningdek, bir qancha oilalar ajrashib ketishining oldini olib, ularning mustahkam bo'lishida o'z hissasini qo'shib keldi. U yoshlarga ma'naviy saboq bo'lishi uchun hayot yo'llaridan esdaliklar qoralab chop ettirdi.

Toshbibi Komilova hayotda ham o'z o'rnini topgan fidoyi onalardan. Turmush o'rtog'i Ergash Xoliqov bilan besh bolani tarbiyalab voyaga yetkazdi. Farzandlari bugungi kunda fidokorona mehnat qilib kelmoqda.

Shu o'rinda Toshbibi Komilova haqida u kishini yaqindan bilgan shogirdlaridan adliya katta maslahatchisi Saida Ibrohimova fikrlariga e'tibor qaratsak:

– Institutni tugatib, 1967-yilda Koson tumani prokuraturasiga tergovchi vazifasiga ishga kelganimda, avvalo, tajribasiz emasmanmi, ishni nimadan boshlashga rosa qiynalganman. O'sha paytda Toshbibi opa Koson tumani fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limi boshlig'i vazifasida ishlardi. Qariyb har kuni u kishining oldiga borib maslahat so'rardim. Toshbibi opa erinmasdan sohaning sirlarini tushuntirardi. U kishining qo'llab-quvvatlashi bilan ish o'rgandim, tajribamni oshirib oldim.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Saolibiyning "Yatim at-dahr fi mahosili ahli asr" ("Zamona ahli fazilatlarini haqida yagona durdona") asarida shunday yoziladi: "Yaxshi va ezgu insondan uchta meros qoladi: o'tqazilgan nihol, yaratgan va qo'shiq bo'lgan asari, yaxshi farzand". Toshbibi Komilovanning hayot yo'liga nazar solar ekanmiz, ekan nihollari bu har bir oilaga to'g'ri yo'l ko'rsatib, oilalar mustahkamligi yo'lida qilgan xizmatidir. Qo'shiq bo'lgan asarlari esa shogirdlarni yetaklab, to'g'ri yo'lni ko'rsata olgani va oxiri xalqqa nafi tegib ezgu ishlarini davom ettira oladigan solih farzandlarni tarbiyalaganidir.

Xulosa shuki, huquqshunos Toshbibi Komilovanning hayot yo'li ko'plab yoshlarga ibratdir.

Xurshida TILLAXO'JAYEVA,

Toshkent davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi



YANGI MEHNAT KODEKSI QABUL QILINDI

Manba: O'RQ-798, 28.10.2022-y.



@huquqiyaxborot



Kodeksga ko'ra, **yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar va ular bilan bevosita bog'liq ijtimoiy munosabatlarni** huquqiy tartibga solishning asosiy prinsiplari etib quyidagilar belgilandi:

- ✓ mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash;
- ✓ mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash;
- ✓ mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik;
- ✓ mehnat huquqlari ta'minlanishining va mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlanganligi;
- ✓ xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo'l qo'yilmasligi.



Yangi Mehnat kodeksiga ko'ra:



mehnatga vaqtbay haq to'lanadigan xodim **har xil malaka talab etiladigan ishlarni bajarganda** unga yuqori malaka bo'yicha haq to'lanadi;



dam olish kuni **bayram kuniga to'g'ri kelsa** keyingi kunga ko'chiriladi;

200 %

ishdan bo'shatish nafaqasi **200 % gacha** to'lanadi.



Yillik asosiy ta'til muddati kamida **21 kalendar kun** etib belgilanmoqda.



Amaldagi tartibga ko'ra **15 ish kunidan** kam bo'lmasligi lozim.



XODIMNING SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARI MEHNAT KODEKSI BILAN MUSTAHKAMLANDI

Manba: O'RQ-798, 28.10.2022-y.



@huquqiyaxborot



Xodimning shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilish masalalari Mehnat kodeksi bilan mustahkamlandi.

Yangi mehnat kodeksiga ko'ra, quyidagi ayrim toifadagi xodimlarning mehnatini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari belgilandi:

- ✓ masofadan turib ishlovchi xodimlar;
- ✓ kasanachilar;
- ✓ mavsumiy ishchilar;
- ✓ vaxta usulida ishlovchi xodimlar;
- ✓ alohida tarmoq (transport, tibbiyot, ta'lim, professional sport) xodimlari;
- ✓ vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan shaxslar;
- ✓ o'rindoshlik asosida ishlovchi shaxslar;
- ✓ chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;
- ✓ uy ishchilari;
- ✓ mikrofirmalarda va ish beruvchi bo'lgan jismoniy shaxslarda ishlovchi shaxslar.



Xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra **har yilgi mehnat ta'tili qismlarga bo'linishi mumkin**. Bunda ushbu ta'tilning hech bo'lmaganda bir qismi **14 kalendar kundan kam** bo'lmasligi kerak.



Amaldagi tartibga ko'ra 12 ish kunidan kam bo'lmasligi lozim edi.



Yangi mehnat kodeksiga ko'ra

18 yoshga to'lmagan xodimlarni, homilador ayollarni va mehnat sharoitlari o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan xodimlarni har yilgi mehnat ta'tilidan chaqirib



Sh. Bahronov, S. Quronov. **Bolalar uchun yuridik ensiklopediya.**

Kitobda bolalar yoshlik chog'idanoq o'rganishi zarur bo'lgan huquqiy ma'lumotlar keltirilgan. Har bir ma'lumot bolalar tomonidan yaxshiroq o'zlashtirilishi uchun suratlar bilan boyitilgan.

Tili: o'zbekcha.

Hajmi: 160 bet.

Formati: 70x100 1/16

ISBN: 978-9943-5622-7-1

Muqova: yumshoq.

Narxi: 31 000 so'm (QQS bilan).

Telefon: +998 71 233 25 65, +998 71 280 55 47



Sh. Bahronov, O. Madvaliyev. **Yoshlar uchun yuridik ensiklopediya.**

Kitobda yoshlar o'z huquqlarini o'rganishi uchun zarur ma'lumotlar keltirilgan. Ensiklopediyani tayyorlashda Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, milliy va yuridik ensiklopediyalar, izohli lug'at, internet va boshqa manbalardan keng foydalanilgan.

Tili: o'zbekcha.

Hajmi: 208 bet.

Formati: 70x100 1/16

ISBN: 978-9943-5622-8-8

Muqova: yumshoq.

Narxi: 32 000 so'm (QQS bilan).

Telefon: +998 71 233 25 65, +998 71 280 55 47



Sh. Soatova, F. Tojiyev. **Ayollarga huquqiy madad.**

Ayolga faqat oila o'chog'i, ro'zg'orning kam-ko'stini, dasturxonning osh-namagini rostlaydigan xilqat sifatida qarash to'g'ri bo'lmaydi. U avvalo jamiyatning faol a'zosi. Ta-biiyki, uning atrofida turli huquqiy chigalliklar mavjud. Shu ma'noda ushbu kitobda ayol-larning oilada, ta'lim, mehnat faoliyatidagi va boshqa holatlardagi huquqlari, burchlari keltirildi.

Tili: o'zbekcha.

Hajmi: 256 bet.

Formati: 84x108 1/32

ISBN: 978-9943-5622-6-4

Muqova: yumshoq.

Narxi: 32 000 so'm (QQS bilan).

Telefon: +998 71 233 25 65, +998 71 280 55 47



Konstitutsiyadagi muhim normalar 10 ta qo'llanmada!

- "Xalq hokimiyatchiligi: asosiy tushunchalar"
- "Fuqarolik: muhim ma'lumotlar"
- "Shaxsiy huquqlar"
- "Siyosiy huquqlar"
- "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar"

- "Inson huquqlari: konstitutsiyaviy kafolatlar"
- "Konstitutsiyaviy burchlaringizni bilasizmi?"
- "Tadbirkorlik huquqi"
- "Oil va uning huquqiy asoslari"
- "Ommaviy axborot vositalari va so'z erkinligi"

Tili: o'zbekcha.


Hajmi: 96 bet (har biri).

Formati: 60x84 1/16

ISBN: 978-9943-7296-2-9

Muqova: yumshoq.

To'plam narxi: 210 000 so'm (QQS bilan).



O'zbekiston Respublikasi kodekslari

2021-yil 1-dekabr gacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan.

Tili: o'zbekcha.

Hajmi: 1-jild 768 bet.

2-jild 736 bet.

Formati: 84x108 1/16

ISBN: 978-9943-7296-3-6

Muqova: qattiq.

Narxi: 240 000 so'm (QQS bilan).

Telefon: +998 71 233 25 65, +998 71 280 55 47